

## JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

Amanbaev Iqlasbay Baxtibay

Xalqaro arbitraj va nizolarni hal etish magistrlik mutaxassisligi ulining “Investitsiyaviy arbitrajda eng ko‘p qulaylik rejimi tamoyili” mavzusida

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20229709>

**Annotasiya.** Ushbu tezis investitsiyaviy arbitrajda eng ko‘p qulaylik rejimi tamoyilining huquqiy mazmuni, uning xalqaro investitsiya bitimlaridagi o‘rni va arbitraj yurisdiksiyasiga ta’siri bo‘yicha yuzaga kelayotgan murakkab nazariy-amaliy masalalarni tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Eng ko‘p qulaylik rejimi tamoyili xorijiy investorlar uchun teng va qulay sharoit yaratishga xizmat qiluvchi xalqaro-huquqiy me‘yor bo‘lib, bugungi kunda aksariyat ikki tomonlama investitsiya bitimlarida mustahkamlangan. Mazkur ishda ushbu tamoyilning mazmuni, shakllanishi, investitsiya bitimlarida ifodalanish xususiyatlari va ayniqsa arbitraj jarayonlarida protsessual qo‘llanishi turli arbitraj tribunal qarorlari asosida chuqur tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** eng ko‘p qulaylik rejimi tamoyili, investitsiyaviy arbitraj, ICSID, UNCITRAL, protsessual MFN, normativ import, yurisdiksiya, BIT, investitsion nizolar, xalqaro xususiy huquq.

**Abstract.** This master’s thesis examines the legal nature of the Most-Favoured-Nation (MFN) principle in investment arbitration, its role in bilateral investment treaties (BITs), and its impact on arbitral jurisdiction. The study highlights divergent arbitral interpretations regarding the procedural scope of the MFN clause, specifically whether it allows investors to “import” more favorable dispute settlement provisions from third-party treaties. The research analyzes major arbitral precedents, demonstrating the deep inconsistency in tribunal approaches and the need for clearer doctrinal boundaries. The thesis concludes with practical recommendations for improving the BIT framework of Uzbekistan and enhancing legal certainty in investment dispute resolution.

**Keywords:** MFN clause, investment arbitration, ICSID, UNCITRAL, procedural MFN, jurisdiction, treaty interpretation, BIT, dispute settlement.

Investitsiyaviy arbitraj amaliyotida eng ko‘p qulaylik rejimi tamoyili investor himoyasining eng muhim va eng bahsli standartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tamoyilning asosiy maqsadi xorijiy investorlarga qabul qiluvchi davlat tomonidan uchinchi mamlakat investorlariga taqdim etilganidan kam bo‘lmagan qulay huquqiy rejim taklif etilishini ta’minlashdir. Tarixan savdo huquqidan kelib chiqqan mazkur tamoyil, vaqt o‘tishi bilan investitsiya shartnomalariga ko‘chdi va bugungi kunda investitsiyaviy arbitrajning asosiy tamoyillaridan biriga aylandi. Eng ko‘p qulaylik rejimi investorga kengroq himoya kafolatlari berish bilan birga, unga turli shartnomalardagi afzallikli normalarni qo‘llash imkoniyatini beradi. Zamonaviy amaliyotda investorlar eng ko‘p qulaylik rejimi tamoyilidan nafaqat moddiy standartlarni (masalan, FET yoki expropriation) kuchaytirish, balki protsessual tartiblarni — ya’ni arbitrajga murojaat qilish mexanizmlarini boshqa shartnomalardan qabul qilib olish uchun ham foydalanmoqda. Aynan eng ko‘p qulaylik rejimi tamoyilining protsessual tatbiqi investitsiyaviy arbitrajda eng keskin munozaralarga sabab bo‘layotgan masalalardan biridir.

Eng ko'p qulaylik rejimi tamoyilining investitsiyaviy arbitrajdagi o'rni ikki asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi: moddiy standartlarga tatbiq etilishi va protsessual normalarga tatbiq etilishi. Moddiy eng ko'p qulaylik rejimi tamoyili oddiy talqinda investorning uchinchi davlat investori bilan teng imkoniyatga ega bo'lishini kafolatlaydi va ko'pchilik tribunal tomonidan qabul qilingan. Biroq protsessual eng ko'p qulaylik rejimi tamoyili — ya'ni investorning boshqa shartnomadagi qulayroq "dispute settlement" mexanizmlarini import qilish huquqi — ko'plab pretsedentlarda to'qnashgan qarama-qarshi talqinlarga sabab bo'lgan. Arbitraj tribunalari o'rtasida protsessual eng ko'p qulaylik rejimi tamoyilining tatbiqi keskin farqlanadi. Ba'zi tribunal bu tamoyil orqali arbitrajga murojaat qilish huquqini kengaytirgan bo'lsa, boshqalari bunday keng qo'llashni qat'iyon rad etgan.

Bu borada eng mashhur bahs *Maffezini v. Spain* (2000) ishi bilan bog'liq. Tribunal Chile–Ispaniya BITidagi qulayroq arbitraj tartibini *Maffezini–Ispaniya* BITiga tatbiq etishga ruxsat berib, investorni ispan sudlarida majburiy oldindan murojaat bosqichidan ozod qildi. Bu yondashuv investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratdi, lekin davlatlar uchun kutilmagan huquqiy oqibatlar olib keldi. *Plama v. Bulgaria* (2005) va *Telenor v. Hungary* (2006) kabi ishlarda tribunal mutlaqo teskari yondashuvni tanladi. Unga ko'ra, eng ko'p qulaylik rejimi tamoyili investorning arbitrajga murojaat qilish huquqini kengaytirishga xizmat qilmaydi, chunki davlatning arbitrajga roziligi aniq va ochiq ifodalanishi lozim. Tribunal eng ko'p qulaylik rejimi tamoyili orqali arbitraj yurisdiksiyasini kengaytirish "shartnomaviy rozilik" tamoyiliga zid ekanini ta'kidladi. Bu qarorlar eng ko'p qulaylik rejimi tamoyilining protsessual tatbiqiga nisbatan qarama-qarshi yondashuvlarni kuchaytirdi.

*Siyemens v. Argentina*, *RosInvest v. Russia*, *Eastern Sugar v. Czech Republic* kabi ishlar esa oraliq yondashuvni shakllantirdi. Ba'zi hollarda tribunal moddiy normalarni import qilishga yo'l qo'ygan bo'lsa-da, protsessual normalarni import qilishni chekladi. Ushbu qarama-qarshiliklar mazkur tamoyilning protsessual talqini bo'yicha umumiy standart yo'qligini ko'rsatadi. Shuning uchun tamoyilining investitsiyaviy arbitrajdagi tatbiqi milliy manfaatlar, BIT matnining aniq formulalari va arbitraj pretsedentlari asosida baholanishi zarur.

BIT matnlarida eng ko'p qulaylik rejimi tamoyilining ifodalanishi davlatlar o'rtasida bir xil emas. Ba'zi shartnomalarda bu tamoyil keng va cheklanmagan tarzda ifodalanadi, bu investor uchun protsessual imkoniyatlar yaratadi. Boshqa shartnomalarda esa bu tamoyil faqat moddiy normalarga taalluqli deb cheklanadi. Bunday formulalar davlatning arbitrajdagi risklarini kamaytiradi va shaffoflikni ta'minlaydi.

O'zbekistonning BITlarida eng ko'p qulaylik rejimi tamoyili bandlari ko'pincha keng shaklda ifodalanadi, bu esa investorlarning bu tamoyil orqali arbitraj tartiblarini kengaytirish xavfini yuzaga keltiradi. Shuningdek O'zbekiston bir qator BITlarda bu tamoyilning protsessual tatbiqini bevosita cheklamagan. Bu esa investorlar tomonidan turli BITlardagi qulay arbitraj mexanizmlarini import qilishga imkon berishi mumkin. Natijada mamlakat kutilmagan protsessual majburiyatlarga duch kelishi ehtimoli ortadi. Shu bois eng ko'p qulaylik rejimi tamoyili bandlarining aniq chegaralanishi O'zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Kelajakdagi islohotlar qatorida birinchi navbatda BITlarda protsessual eng ko'p qulaylik rejimi tamoyilini cheklovchi aniq normalarni kiritish zarur. Masalan: "eng ko'p qulaylik rejimi tamoyili nizolarni hal etish tartibiga tatbiq etilmaydi". Bu formula davlatning arbitrajdagi

roziligini himoya qiluvchi eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ikkinchidan, BIT matnlarida eng ko'p qulaylik rejimi tamoyilining moddiy va protsessual qo'llanishi aniq farqlanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, Eng ko'p qulaylik rejimi tamoyili investitsiya muhitining barqarorligi, investor himoyasi va arbitraj yurisdiksiyasining shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Ammo uning protsessual tatbiqi bo'yicha amaliyotda mavjud qarama-qarshi yondashuvlar bu tamoyilning huquqiy chegaralarini aniq belgilashni talab qiladi. O'zbekiston uchun bu tamoyilning tatbiq doirasini me'yoriy jihatdan aniqlashtirish va BIT matnlarini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish investitsion xavfsizlik va arbitrajdagi barqarorlikni ta'minlaydi.

**Foydalanilgan manbalar:**

1. Tulyakov Eldor. Bilateral Investment Treaties of Uzbekistan: Investor-State Dispute Resolution. University of Bologna. Law Review, 2019
2. Dolzer, R., & Schreuer, C. (2012). Principles of International Investment Law. Oxford University Press.
3. Newcombe, A., & Paradell, L. (2009). Law and Practice of Investment Treaties. Kluwer Law.
3. The Boundaries of Most-Favoured Nation Treatment in International Investment Law. Tony Cole
4. MFN-based jurisdiction in investor-state arbitration: is there Any hope for a consistent approach?. (Journal of International Economic Law) 2010. Julie A. Maupin